



GLOBALASHUV DAVRIDA TA'LIM TIZIMINING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIDAGI O'RNI

*Mualliflar: Ilmiy tadqiqotchilar: **Sheraliyev Javohir Ilhom o'g'li** Toshkent
farmatsevtika instituti Farmatsiya yo'nalishi 3-kurs talabasi,
Raximov Muxammadamin Olimjonovich Toshkent Farmatsevtika instituti
4-kurs talabasi,
Ismoilova Marjona Burxonovna Toshkent farmatsevtika instituti 4-kurs
talabasi,
Ilmiy rahbar: **Shermatova Iroda Baxtiyorovna** Toshkent farmatsevtika
instituti PhD,
muhammadamin_raximov@icloud.com iroda.shermatova.94@mail.ru
javoxirsher1619@gmail.com*

Kalit so'zlar: Globallashuv, ma'naviy tarbiya, ta'lim tizimi, yoshlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli axborot oqimi, madaniyatlararo ta'sir, mafkuraviy tahdid, ommaviy madaniyat, internet, ijtimoiy tarmoqlar, tarbiya strategiyasi, milliy o'zlik, tarixiy xotira, madaniy meros, prezident qarorlari, monitoring, baholash, O'zbekiston tajribasi, xalqaro ta'lim modeli, integratsiyalashgan yondashuv, notiqlik san'ati, chekka hududlar, axborot madaniyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonlarining yosh avlod ma'naviy tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'siri, shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimining bu boradagi o'rni va mas'uliyati yoritilgan. Hozirgi kunda raqamli axborot oqimining tezligi, madaniyatlararo ta'sirlar va g'oyaviy tahdidlar yoshlarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki ma'naviyat, ijtimoiy mas'uliyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiruvchi asosiy institutga aylanishi lozim. Maqolada shuningdek, xalqaro tajribalar, ilg'or



ta'lim konsepsiyalari, ma'naviy yetuklikni shakllantirishga qaratilgan dasturlar va strategiyalar tahlil qilinadi. Xususan, turli mamlakatlar ta'lim tizimidagi ma'naviy tarbiya yondashuvlari solishtirilib, O'zbekiston tajribasi bilan qiyosiy tahlil keltiriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishda integratsiyalashgan, innovatsion va milliy qadriyatlarga tayanadigan ta'lim modeli muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda.

Kirish. (Introduction). XXI asr insoniyat taraqqiyotining tubdan o'zgarishlar yuz berayotgan davri bo'lib, globallashuv jarayonlari hayotning barcha sohalariga, xususan, ta'lim va tarbiya tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, madaniyatlartar aloqalarning kengayishi, g'oyaviy va mafkuraviy kurashlarning kuchayishi yosh avlod ma'naviy dunyosiga bevosita ta'sir qilmoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimining faqat bilim beruvchi emas, balki ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantiruvchi kuch sifatida rolini kuchaytirish dolzarb masalaga aylangan. Globallashuv bir tomondan zamonaviy bilimlar, ilg'or texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar bilan tanishtirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan milliy o'zlik, tarixiy xotira, madaniy meros va ma'naviy qadriyatlarga tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, ta'lim tizimi yoshlarni zamonaviy dunyoga mos va raqobatbardosh qilib tarbiyalash barobarida, ularning ma'naviy barkamolligini ta'minlash, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilishi zarur. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasi hozirgi globallashgan axborot maydonining asosiy "iste'molchisi" sifatida ideologik xurujlarga eng moyil qatlam sanaladi. Bu esa ta'lim tizimidan yangicha yondashuvlarni, integratsiyalashgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan ta'lim-tarbiya strategiyalarini talab etadi. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni, xalqaro tajriba asosida samarali yondashuvlar, shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimidagi mavjud imkoniyatlar va istiqbolli yo'nalishlar tahlil qilinadi. Maqola bugungi kunda globallashuv va



ma'naviy tarbiya muammolari kesishmasida ta'limning strategik ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Globallashuv jarayonlari ta'lim tizimi va yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga turli yo'llardan ta'sir qiladi: ijobiy imkoniyatlar ham, xavf-xatarlar ham mavjud. O'zbekiston sharoitida ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar, davlat siyosati va normativ-huquqiy hujjatlar yoshlar ma'naviyati va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish imkonini oshiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi yoshlarning bo'sh vaqtini qanday sarflashini o'zgartirmoqda; internet, ijtimoiy tarmoqlar, global media vositalari yoshlar ongiga yot madaniyat, yangicha qarashlar, qadriyatlar olib kiradi. Ta'lim muassasalari, maktabdan boshlab, yoshlarni ushbu oqimdan himoya qilish, milliy ma'naviyatni saqlab qolish, kritikall fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vakolatga ega. Ta'lim tizimi globallashuv sharoitida milliy va mahalliy ma'naviy qadriyatlar bilan yangicha madaniya va texnologiyalarni uyg'unlashtirishga majbur. Yoshlar nafaqat milliy meros, urf-odat, an'analar, ona tilini o'rganishi, balki dunyoqarashi keng, innovatsion fikrlashga ega bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasining Prezident qarorlari (masalan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ–5150) hamda strategik institutlarning tahliliy hisobotlari yoshlar ma'naviy tarbiyasini yaxshilash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi. Ushbu huquqiy hujjatlar ta'lim muassasalari faoliyatida ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tarbiya elementlarini integratsiyalashni majburiy qilmoqda. Prezident Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston – inson qadri ulug'langan jamiyat va xalqparvar davlat" g'oyasi doirasida ta'lim-tarbiya sohasida insonparvarlik, ezgulik, jamiyatga xizmat kabi ma'naviy qadriyatlar ustuvor sanaladi. Ta'lim muassasalari va o'qituvchilardan yoshlar qarashida ushbu qadriyatlarni uyg'un ravishda shakllantirish talab etiladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga oid darslar, fakultativ mashg'ulotlar, to'garaklar, extracurricular faoliyatlarni kengaytirish. Masalan, maktab va oliy ta'lim



muassasalarida notiqlik san'ati, milliy adabiyot, tarixiy ong, ona tiliga bag'ishlangan darslar yoshlarning milliy identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Oila, mahalla va jamiyat ta'sirining kuchayishi: tarbiyachilar va ota-onalar o'zaro hamkorlikda yoshlarning ma'naviy tarbiyasida ishtirok etmoqda. Oila muhitining ma'naviy jihatdan boy bo'lishi, ota-onalarning yoshlarga so'z orqali va amalda ko'rsatadigan namunalari yosh ongining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Yot madaniyat, ommaviy madaniyat salbiy ta'sirlariga qarshi profilaktik ishlarning olib borilishi: axborot butun dunyo bo'yicha tez tarqaladi, yoshlar turli axborot manbalaridan, ijtimoiy tarmoqlardan noto'g'ri yoki zararli tarkibni qabul qilishi mumkin. Ta'lim muassasalari va davlat idoralari yoshlar axborot madaniyati, discriminatsiya, stereotiplar, ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Natijalar va samara. Ta'lim tizimidagi bu yo'nalishlarda olib borilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar natijasida bir qator ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda: Yoshlarning milliy g'ururi, ona tili, tarixga, urf-odat va an'anaga hurmat ko'rsatishi kuchaymoqda. Maktablarda o'zbek tili va adabiyoti, tarixi fanlariga bo'lgan e'tibor oshgani, yoshlar milliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan tarzda tarbiyalanish imkoniyati ko'proq bo'lmoqda. Bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish faoliyatlari kengaymoqda: to'garaklar, madaniyat va san'at, sport, ijtimoiy loyihalar, yoshlar markazlari, ma'naviy-ma'rifiy seminarlar — bularning barchasi yoshlar orasida passivlik o'rnini faoliyatga almashtirishga yordam bermoqda. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan PQ-5150 kabi qarorlar bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etishni rag'batlantiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan, Internet va ijtimoiy tarmoqlardan yoshlar ma'naviyatini mustahkamlash yo'lida foydalanish bo'yicha ko'nikmalar oshib bormoqda. Masalan, filologiya, notiqlik, madaniyat markazlari, universitetlar yoshlarni global mazmunli, lekin milliy tomondan bog'langan axborot va madaniyatlarga yo'naltirishga harakat qilmoqda. Yot g'oyalar, "ommaviy madaniyat"ning salbiy jihatlari: kiyinish madaniyati,



pasa-pasayish, yot stereotiplar yoshlar orasida tarqalmoqda, lekin ularni kamaytirish uchun ta'lim muassasalarida moral-ma'naviy muhitni yaratish, ma'naviy kodlarni o'rgatish faoliyati kuchaymoqda. Oila va mahalla muhitida ma'naviy tarbiyaga oid anglashuv oshgan. Ota-onalar, mahalla etakchilari, diniy va madaniy institutlar yoshlar tarbiyasida faollashmoqda.

Qiyinchiliklar va cheklovlar. Tahlil shuni ko'rsatadiki, barcha sohalarda ma'naviy tarbiya ideal darajada amalga oshmayapti, ayrim muammolar hali ham mavjud: Resurslar, metodologiyalar va o'qituvchilarning malakasi ba'zan yetarli emas. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borilsa-da, ularning pedagogik jihatdan samaradorligi, monitoringi va baholash mexanizmi ko'pincha zaif. Bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etishda infrastrukturaviy cheklovlar, ayniqsa chekka hududlarda, kichik maktab vaqiyalarda yetarli sharoitlarning bo'lmasligi. Global axborot oqimlari: yoshlar ko'pincha yot g'oyalar, stereotiplar va madaniyat aralashuvi ta'siriga tushib qoladi; bu ularning ma'naviy identitetiga zarar yetkazishi mumkin. Oila muhitidagi ba'zi kamchiliklar: ota-onalarning bandligi, yoshlar bilan muloqotlarning yetishmasligi, tarbiyaviy doimiylik va jiddiylik masalalari. Tahlil asosida quyidagi natijalar xulosasi chiqarish mumkin: **Ta'lim tizimi yoshlarning ma'naviy tarbiyasida markaziy rol o'ynaydi.** Ta'lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash vazifasini o'z zimmasiga olgan. **Davlat siyosati va huquqiy hujjatlar ma'naviy tarbiyani mustahkamlashga yo'naltirilgan tashabbus va norma-asoslarni yaratadi.** Prezident qarorlari, tashabbuslar, strategiyalar ma'naviyat, yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli yo'nalishlarni belgilab beradi. **Milliy qadriyatlar va ona tilining ta'limda roli oshmoqda.** Yoshlar tarbiyasida ona tilida ma'rifiy, tarix va adabiyot fanlarini chuqur o'rganish, milliy meros, urf-odat va an'analarni amalda qo'llash ko'paymoqda. **Texnologiyalar va global axborot maydonidan foydalanish imkoniyati mo'ljallangan, lekin ehtiyot choralari**



zarur. Axborot-kommunikatsiya vositalari yoshlar uchun o‘zaro bog‘lanish, keng dunyoqarash olish, yangiliklarga tez erishish imkonini beradi. Biroq, bu vositalar orqali tarqaladigan yot axborot, stereotiplar, ekstremizm kabi salbiy kontentlardan himoya choralarini kuchaytirish talab qilinadi. **Ijtimoiy va ma’naviy immunitet shakllantirish: muhim yo‘nalish.** Yoshlarning ichki tarbiya, ruhiy, axloqiy mustahkamligi — bu “immunitet” — ta’lim muassasalarida va oilada ishlanmoqda. Mazkur immunitet yoshlarni yot ta’sirlardan saqlashda va ma’naviyatini mustahkamlashda kalit hisoblanadi. **Keng qo‘llash va samaradorlik: monitoring va baholash kerak.** Ma’naviy tarbiyaga oid chora-tadbirlarni samaradorligini baholash, natijalarni o‘lchash, zarur bo‘lsa usullarni takomillashtirish lozim. Shuningdek, chekka hududlar va kam sharoitdagi maktablarda imkoniyatlarni kengroq ta’minlash muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan jamiyat va xalqparvar davlat”. – T.: O‘zbekiston, 2021.
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyundagi PQ–5150-sonli qarori “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti: “Globallashuv va yoshlar: imkoniyatlar va xavf-xatarlar” mavzusidagi tahliliy hisobot. – Toshkent, 2023.
- 4) Shamsudinova M.U. “O‘zbekiston ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni va ahamiyati”. Andijon davlat pedagogika instituti. maqola.reandpub.uz
- 5) Usenov Jiengaliy. “Globallashuv jarayonlarining yoshlar ma’naviy tarbiyasiga ta’siri”. Ustozlar uchun jurnali. Pedagoglar



6) Miraxmedov J. “Zamoniy ta’lim tizimida yoshlar ongida milliy o‘zlikni anglash va tarixiy ongning shakllantirish masalalari”. sciencetechnology.uz

7) Rahmonova S.S. “Globallashuv jarayonida ta’lim-tarbiya uyg’unligining ahamiyati”. modernedu-dv.com

8) Jamolova Shoyira Uyg’un qizi & Hikmatova Dildora Mirzo qizi. “Globallashuv davrida tarbiyachiga qo’yiladigan talablar”. nauchniyimpuls.ru

9) Abduraimov Eldor Qurbonboy o‘g‘li. “Globallashuv davrida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari (ta’lim tizimi misolida)”. Pedagoglar

10) Yoqubov Jamshid G‘ulomjon o‘g‘li. “Globallashuv davrida ‘ommaviy madaniyat’ning yoshlar ongiga tahdidi”.